



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ZAMONAVIY TIL DARSLIKLARIDA NUTQ KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION, NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Ismailova Dildora Ziyadillayevna

SamDCHTI doktoranti

dildora.ismailova@gmail.com

Bugungi globalashuv va raqamli iqtisodiyot davrida xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini mukammal bilish jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish, ilm-fan yutuqlaridan erkin foydalanish va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishning birlamchi shartiga aylandi. Til o'rganish jarayonida to'rtta asosiy nutqiy faoliyat turi (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) mavjud bo'lsa-da, ular orasida og'zaki nutqiy ko'nikmalarni (Speaking skills) rivojlantirish alohida pragmatik ahamiyatga ega. Chunki til birinchi navbatda, muloqot va axborot almashish vositasidir. O'quvchi yoki talabning tildan amaliy foydalanish darajasi, uning lingvistik salohiyati va muloqot kompetensiyasi bevosita uning og'zaki nutqida, o'z fikrini erkin, ravon va vaziyatga mos ravishda bayon eta olishida namoyon bo'ladi [1]. Ko'p yillik an'anaviy metodikada kuzatilgan fundamental xato shunda ediki, ta'lim oluvchilar yillar davomida grammatik qoidalarni mukammal o'rganib, matnlarni tarjima qila olsalar-da, real hayotiy muloqot vaziyatlariga duch kelganda "til baryeri" (psixologik to'siq) tufayli gapira olmas edilar. Aynan shu sababli, zamonaviy metodikada darslik va o'quv materiallarining asosiy yo'nalishini grammatikaga emas, balki nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratish dolzarb muammo hisoblanadi.

Ushbu masala so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, xususan, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan islohotlar negiziga mutanosibdir. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarning xalqaro standartlar asosida til o'rganishlari uchun keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 5117-sonli qarori hamda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligining tashkil etilishi bu boradagi islohotlarning huquqiy va institutsional poydevori bo'ldi [2].

Mazkur islohotlar doirasida mamlakatimiz ta'lim tizimida quyidagi ulkan pedagogik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda:

- Ta'lim tizimidagi barcha bosqichlar uchun yangi avlod "Milliy darsliklar"ining Cambridge University Press kabi nufuzli xalqaro nashriyotlar bilan hamkorlikda yaratilib, mutlaqo yangi metodologiyaga asoslangan til darsliklari joriy etildi [3]. Bu darsliklarning bosh konsepsiyasi bu-o'quvchilarni faqat imtihon yoki testlarga tayyorlash emas, balki ularda xalqaro CEFR (Common European Framework of Reference) standartlariga mos ravishda real muloqot kompetensiyasini shakllantirishdir[4];





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



-Darsliklar ichki tuzilishida statik leksik-grammatik mashqlardan voz kechildi. Ularning o'rniga o'quvchilarning og'zaki nutqini, tinglab tushunish qobiliyatini guruhlarda ishlash (group work), juftlikda ishlash (pair work) hamda loyihalar (project work) orqali rivojlantiruvchi o'quv materiallariga asosiy urg'u berila boshlandi;

-Pedagog kadrlardan nafaqat tilni bilish, balki dars o'tishda zamonaviy interaktiv texnologiyalardan foydalanish, darslik ichidagi audio va video materiallarni (Authentic Input) nutq faoliyati bilan integratsiya qila olish ko'nikmalari talab etilmoqda (masalan, milliy va xalqaro sertifikatlar — Milliy sertifikat, IELTS, CEFR talablarining kuchaytirilishi) [5].

Biroq, respublikamizda shunday keng ko'lamli moddiy-texnik va metodik baza yaratilayotganiga qaramay, amaliyotda yangi avlod darsliklaridagi nutq o'stirish materiallaridan foydalanishda hamon ma'lum bir tizimli to'siqlar va an'anaviy pedagogik qarashlarning asoratlari ko'zga tashlanmoqda. Darsliklar qanchalik mukammal va kommunikativ tarzda loyihalashtirilmasin, agar ulardagi materiallar real pedagogik jarayonda talabalarning muloqot kompetensiyasini to'liq ochib berishga xizmat qilmasa, islohotlarning kutilgan samaradorligiga erishish qiyin kechadi.

Shu sababli, zamonaviy til darsliklarida nutqiy malakalarni rivojlantiruvchi o'quv materiallarining hozirgi holatini tizimli o'rganish, ularni hayotga tatbiq etishdagi pedagogik to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha ilmiy-nazariy yechimlar ishlab chiqish bugungi kun metodikasi uchun g'oyat dolzarb va strategik ahamiyatga ega masaladir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida ishda quyidagi aniq vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

1. Kommunikativ topshiriqlar tizimini shakllantirish va yutuqlarini keng joriy etish:

Zamonaviy va yangi avlod til darsliklarining o'quv kontentini chuqur tahlil qilish orqali ta'lim oluvchilarning og'zaki nutqini faollashtiradigan va ularni mustaqil, tanqidiy fikrlashga undaydigan eng ilg'or hamda muvaffaqiyatli topshiriqlar tizimini aniqlash. Bunda darsliklardagi kommunikativ mashqlarning o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi, nutqiy ijodkorlikni (creative speaking) yuzaga chiqarishdagi yutuqlarini ilmiy asoslash va ushbu ijobiy tajribalarni umumiy metodik qolip sifatida umumlashtirish.

2. Ravonlikni (Fluency) rag'batlantiruvchi innovatsion pedagogik strategiyalar metodologiyasini shakllantirish:

O'quvchilarning dars jarayonida hech qanday psixologik to'siqlarsiz, erkin, tabiiy va ravon gapira olish imkoniyatlarini maksimal darajada oshiruvchi pedagogik yondashuvlarni tavsiflash. Bunda darslik tarkibiga muvaffaqiyatli integratsiya qilingan "Guided Discovery" (Yo'naltirilgan izlanish) metodining talabalarda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasini qanday shakllantirishini hamda zamonaviy keys texnologiyalarining (Case-study) real hayotiy muammolarni jamoaviy hal qilish orqali nutq faolligini qay darajada rag'batlantirishini ijobiy pedagogik omil sifatida ochib berish.

3. Kommunikativ materiallar salohiyatini amaliy hayotga tatbiq etish va istiqbolli metodik modelni loyihalash:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Yangi avlod darsliklarida berilgan zamonaviy audio-vizual va matnli kommunikativ materiallarning boy potensialiga tayangan holda, ta'lim oluvchilarning real hayotiy muloqot va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarini yanada yuqori bosqichga olib chiquvchi konseptual metodik tavsiyalar modelini ishlab chiqish. Mazkur darsliklar orqali maktab, litsey yoki oliy ta'lim muassasalarida yaratilgan ijobiy poydevorni kelgusida yanada takomillashtirish, darslikdagi interaktiv muhitni o'quvchilarning kundalik jonli muloqotiga silliq ko'chirish mexanizmlarini loyihalashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Richards, J. C. (2006). Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press. – Pp. 14-18.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi (Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – B. 85-92.
4. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume. Council of Europe Publishing. – Pp. 45-51.
5. Thornbury, S. (2005). How to Teach Speaking. Longman. – Pp. 28-34.

